ADABIYOTIMIZDA TAKRORGA ASOSLANGAN BADIIY SAN'ATLAR

Sharipova Gulchehra Erkinovna Farʻona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyoti fani yetakchi oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotda katta ta'sirga ega boʻlgan badiiy san'atlar, shuningdek soʻz takroriga asoslangan san'at turi tahlilga tortiladi.

Tayanch soʻzlar: adab, takrir, mukarrar, rad-ul matla, tardi aks, tasbe, tasdir, anafora, assonans, epifora, she'riy san'at, badiiy san'at, tor va keng ma'no.

KIRISH Adabiyot-soʻz san'ati. Adabiyot adab soʻzidan kelib chiqqan. "Adab" soʻzi tor ma'noda adabiyot ilmi ma'nosini anglatadi. Sharq islom olamida hozirgi "adabiyot" istilohi "adab ilmi" deb yuritilgan. Keng ma'noda esa, birinchi navbatda har bir ishda me'yorini saqlash tushunchasini beradi. Bu fazl-u ziynatlar insonni komillika olib chiqadi. Adabiyot komillik sari chorlaydi". Qoʻshimcha qilib aytish mumkinki, adabiyot insonni tarbiyalaydi, uning ong osti ma'naviyatini yuksaltiradi. Adabiyot bizga ruhiy olam bagʻishlaydi. Choʻlpon: "Adabiyot chin ma'nosi ila oʻlgan, soʻngan, qoralangan, oʻchgan, majruh yaradir, koʻngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan, qora balchiqlarni tozalaydurgʻon, oʻtkir yurak kirlarini yuvadigan toza ma'rifat suvi, xiralangan oynalarimizni yorugʻ va ravshan qiladurgʻon buloq suvi boʻlganligidan bizga juda kerakdir" deb adabiyotga yuksak darajada ta'rif beradi. Adabiyot jonning badiiy ozuqasi. Adabiyotni goʻzallik bagʻsh etadi deb aytganlari rost. Bu goʻzallik esa soʻz san'ati orqali namoyon boʻladi. Insonga, butun boshli borliqqa san'at kata ta'sir koʻrsatadi.Oʻzining ichki olamini koʻzgu sifatida qoʻliga topshiradi. Shuning uchun ham "Adabiyot – soʻz san'ati" deb yuritiladi. Soʻz san'ati yordamida adabiyotda asar tarkibiga emotsional-ekspressiv boʻyoq, mubolagʻaviy tasvir yuklanadi. Badiiy san'atlar adabiyotning she'riyat turi bilan uzviy bogʻliq, ayniqsa mumtoz she'riyat bilan. Badiiy san'atlarning ikkinchi nomi she'riy san'atdir. Shoirning his-tuygʻularini qay tarzda ifodalanishi bu badiiy san'atdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotimizda shu kungacha badiiy san’atlardan unumli ravishda foydalanilgan. Buyuk shoirlarimiz o‘z asarlarida she’riy sanatlarni o‘rni va me’yori bilan qo‘llaganlar. Mavlono Atoiy va Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va Zahriddin Muhammad Bobur, Mashrab va Ogahiy, Nodira va Uvaysiy, Furqat va Muqimiy asarlari fikrimiz dalilidir. Shayx Ahmad bin Xudoydod Taroziy “Funun-ul balog’a” asarida o‘z davrida she’riy janrlarga tavsif beradi. Bular: qasida, qit’a, masnaviy, tarje, musammat, mustazod, mutavval, fard. Alisher Navoiy ijodida “Xazoyin ul- maoniy” da she’riy janrlarning 16 xili mavjud. Ularning barakalisi ruboiydir. Adabiyotimiz ravnaq etgan sayin, san’atlarni ich-ichidan o‘rgtanishga zamin yaralgan. A. Hojiahmedovning “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya”, A.Asallayevning “Badiiy san’atlar” ilmiy kitoblari va Dilmurod Quronov, Najmiddinn Komilov, Shuhrat Rizayev, Bahodir Karimov kabi iste’dod darg‘alarining ilmiy-tadqiqot ishlari uning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga zamin yaratadi.

MUHOKAMA She’riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan g‘oyalarini hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishga, lirik va epik timsollarni yorqinroq gavdalantirishga, misralar, bandlarning lafziy, nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan. She’riy san’atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she’riy san’atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog‘liqligi sanaladi. San’atlarning ichida so‘zning takroriga asoslangan san’atlar aynan so‘zning shakliy jihatiga bog‘liq. Ularga: takrir, mukarrar, tardi aks, rad, rad-ul-matla, anaphora, epifora, assonans, tasbe, tasdir kabilar kiradi. Ular baytning muayyan bir o‘rnida kelib, misralar oxirida, boshida, yoki o‘rtasida takrorga tayanib shakllandi. Takrir. Takrorga tayangan she’riy san’at. “Takrorlash” ma’nosini beradi. Asosan takror baytdagi ta’kidni ifodalash uchun ishlatiladi. Yusuf Xos Hojib: “Qayusi qo‘por, ko‘r, qayusi qo‘nar Qayusi chapor, ko‘r qayu suv ichar” [4]. Baytda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar asosan so‘roq

shaklning ta’kidiga sababchi bo‘lyapti. Takrir misralarda bir so‘zning xohlagan o‘rinda takrorlanib kelishidir. Mukarrar. Bu san’at “qayta-qayta”, “usti-usti” ma’nolarini beradi. Baytdagi so‘zning muayyan o‘rinda takrorlanib, juftlanib kelishidir. Bu san’at takrirga yaqin turadi. Har bir baytda juft so‘zlarning qo‘llanishin mukarrarga xos xususiyat. Quyidagi baytda ko‘rishimiz mumkin: “Do‘stlar, men telba ahvolig‘a yig‘lang zor-zor Kim, solodur gaz-gaz o‘t ko‘nglumga tushgan xor-xor”. Aslida mukarrar san’ati g‘azalning matlasida ishlatilgan juft so‘zning ta’siri butun boshli g‘azalda ifodalanishidir. Buni Rashidi Fatvo (“Badoye ul-sanoyi” asrida) aytib o‘tadi. Tasdir. Baytda boshlangan so‘z, uning oxirida ham takrorlanadi. Bu holat sadr (boshi) va ajuzda (oxiri) ifodalanadi. Sadrlar tuzilishiga ko‘ra 2ga (qancha so‘z bilan ifodalanishiga ko‘ra) bo‘linadi. Sodda va murakkab tasdirlar. Sodda tasdirlarga 1gina so‘z asos bo‘ladi. Murakkab tasdirlarga esa undan ortiq so‘zlar. “Tayyor qilib sipohi jarror Jarrorliq ichra barcha tayyor”. Tasbe. Bu san’at tasdirga tamomon teskari, baytdagi misra oxiridagi so‘z, keying misraning boshida ifdalanishi. “Alvon bila tok bargi ra’no Ra’no kaf aro nigori hino”. Tardi aks. Tardning ma’nosi “qaytarib berish”, “uzoqlashtirish”, aks esa “zid”, “teskari” ma’nolarini beradi. Bu san’atda takrorlanuvchi so‘zning o‘rni qat’iy emas. Takrorlanuvchi so‘z 2 dan ortiq, o‘rni almashib, takror holatda keladi.“Quzg‘abon ko‘nglum aloxuna alomon ayladi Ne alomon aloxonu, xonumonim o‘rtadi”. Rad ul matla. G‘azalning matla qismidagi misra (g‘azal bosh bayti, “shohbayt” deb aytiladi) maqtada (g‘azal oxirgi bayti) takrorlanishi. Bu san’at badiiy mahorat me’zonlaridan biridir. San’at birinchi bo‘lib Husayn Voiz Koshifiy asarlarida uchraydi. “Agar ishqing havosida yog’ar har jola tosh o’lsun, Nishona har biriga dermen ushbu xasta bosh o’lsum. Navoiy ashk durridek, tilarkim, ko’zda yer bergay, Agar ishqing havosida yog’ar har jola tosh o’lsun”. Yaqin o‘tmishdagi asarlarda yuqoridagi takrorlar boshqacha ko‘rinishda, boshqacha nom bilan uchray boshladi. Bularga: anafora, assonas, epifora misol bo‘la oladi. Anafora. Takror-she’rdagi misra, gaplarning boshidagi

so‘z va so‘z birikmalarning ,keying bandda takrorlanib kelishi. “Endi odam quldek sotilmas Endi odam o‘tga otilmas, Endi unga qafas bo‘lmas jon, Endi dunyo bo‘lmaydi zindon”. Assonans. Badiiy nutqda ohangdorlik va tasvirlash bo‘yoqni oshirish maqsadida qo‘llanadigan fonitek usul. Unlilarning takror holatda kelishi, adabiyotda o‘zgacha ohangdoshlikni hosil qiladi. Bu esa musiqiylikini yuqori darajada oshiradi. Epifora. Bu jumla ritorika bilan ham ifodalanadi. She’riy misrada bir xil so‘zlarning takrorlanishini o‘z ichia oluvchi yozma va og‘zaki nutq. Bu san’at ko‘proq hissiyotlik yuklaydi she’rga. Jumlaning takrorlanishi eksprissivlikni oshiradi.“Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodalilik va xushohanglik vositalari badiiy san’atlar deyiladi. Buni o‘rganadigan fanni “Ilmi sanoye” yoki “Ilmi bade” deganlar. Sharqda she‘riyat asosiy janr bo‘lganidan ko‘pincha she‘r san’atlari tushunchasi ham badiiy san’atlar ma’nosida qo‘llaniladi” . Butun boshli adabiyotni emotsionall-eksprissiv bo‘yoqda ifodalashda, tasviriy mubolag‘ani asarga singdirishda badiiy san’atlarning o‘rni beqiyos. Ayniqsa takrorga tayangan san’atlar asardagi ma’noni ta’kidlab keladi. Badiiy san’atni shoir o‘z asarida atayin qo‘llamaydi, u yorning go‘zalligini ta’riflashda uning go‘zalliklari haqida so‘z ochganda beixtiyor san’atdan foydalanadi. Yuqorida keltirilgan barcha san’atlardan bugungi kelib kitobxon badiiy lazzat oladi. Ma’naviy ozuqaga ega bo‘ladi. Bu san’atlardan foydalangan shoir haqiqiy san’atkordir deya olish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1.Jabborov, N. Maoniy ahlining sohibqironi.Toshkent.2021.11
2.To‘xliyev, B, Karimov. Adabiyot. Davlat.2017.204
3.Hojiahmedov, A. Sher’iy san’atlar va mumtoz qofiya. Toshkent.1998.4
4.Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig.74
5.Alisher Navoiy. Layli va Majnun.G‘afur G‘ulom.Toshkent.2020.153
6. Alisher Navoiy.Hayrat ul abror. G‘afur G‘ulom.26